

**Depozit/omonat mablag‘ini garovga olish to‘g‘risida garov shartnomasi**  
(Depozit/omonat garovi kredit ta’mnoti uchun)

(tuzilgan joy)

yil

Bir tarafdan, Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATB (bundan buyon matnda "Garovga oluvchi" deb ataluvchi) nomidan \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi \_\_\_\_\_ filiali boshqaruvchisi/BXO boshlig‘i \_\_\_\_\_, ikkinchi tarafdan (bundan buyon matnda "Garovga qo‘yuvchi" deb yuritiluvchi) \_\_\_\_\_ ushbu shartnomani (bundan buyon matnda garov shartnomasi deb yuritiladi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

## 1. Shartnoma predmeti

1.1. Garovga oluvchi qarz oluvchiga \_\_\_\_\_ yil kungi \_\_\_\_\_ - sonli kredit shartnomasiga asosan \_\_\_\_\_ oy muddatga, \_\_\_\_\_ yilga qadar qaytarib berish sharti bilan \_\_\_\_\_ miqdorida, yillik \_\_\_\_\_ maqsadida kredit mablag‘i ajratadi. Garovga qo‘yuvchi esa qarz oluvchining garovga oluvchi oldidagi majburiyatlarini bajarilishini ta’minalash maqsadida o‘ziga tegishli bo‘lgan pul mablag‘larini garovga taqdim etadi.

1.2. Garovga qo‘yuvchiga tegishli \_\_\_\_\_ yil kunidagi \_\_\_\_\_ - sonli depozit/omonat shartnomasiga asosan bankning \_\_\_\_\_ - filialida joylashgan, \_\_\_\_\_ - sonli depozit/omonat hisob raqamidagi \_\_\_\_\_ miqdoridagi mablag‘ garov obyekti bo‘lib hisoblanadi.

1.3. Garovga qo‘yuvchi tomonidan garov bilan ta’minlangan majburiyatlar bajarilmaganda, garovga oluvchi garov obyekti qiymatidan boshqa kreditorlarga qaraganda imtiyozli qanoatlantirilish huquqiga ega bo‘ladi. Garov obyekti bilan garovga oluvchining talablari to‘la hajmda ta’milanadi, garov shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar bajarilmaganda, bajarish kechiktirilganda yoki lozim darajada bajarilmaganda neustoykani (jarima, penya) undiriladi, undiruvni garov shartnomasida ko‘zda tutilgan garovga qo‘yilgan mulkka qaratish va garovga qo‘yilgan mulkni realizatsiya qilish va boshqa talablarini bajarish ta’milanadi.

1.4. Garovga qo‘yuvchi garov obyekti bo‘yicha quyidagilarni tasdiqlaydi:

- egalik huquqi asosida garovga qo‘yuvchiga tegishli ekanligini;
- bundan avval garovga qo‘yilmagani, shu jumladan, qonun bilan garovga olinmagani, xatlovga olinmagani, boshqa shaklda musodara qilinmagani, o‘zganing ixtiyoriga o‘tkazilmagani, mablag‘ga bo‘lgan huquqlar biron ta da’voning predmeti bo‘lib hisoblanmasligini va boshqa cheklolvar qo‘yilmaganini tasdiqlaydi.

Garovga qo‘yilgan depozit/omonat mablag‘i \_\_\_\_\_ yil kunidagi \_\_\_\_\_ sonli depozit/omonat shartnomasiga asosan garovga qo‘yuvchiga egalik qilish huquqi asosida tegishli.

1.5. Garov obyektini almashtirishga faqatgina garovga oluvchining yozma roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

1.6. Garov obyektiga nisbatan mulk huquqi cheklangan holda (omonat pul mablag‘ining tanini tasarruf etish huquqisiz, faqat foizlarini olish huquqi bilan) garovga qo‘yuvchida qoldiriladi.

## 2. Tasdiqlash va kafolatlar berish

2.1. Garovga qo'yuvchi garovga oluvchiga taqdim etgan garovga qo'yish bilan bog'liq bo'lgan zaruriy hujjatlar haqiqiyligi, ma'lumotlarning ishonchliligi va hujjatlarning nusxalari asliga to'g'riliгини kafolatlaydi.

2.2. Shartnama tuzayotgan garovga qo'yuvchi xato fikrlar, yolg'on, zo'ravonlik, tahdidlar, yomon niyatli kelishuv yoki og'ir holatlarga to'g'ri kelib qolishi ta'sirida emasligini tasdiqlaydi.

2.3. Garovga qo'yuvchi bilan aloqa bog'lash usuli: mazkur shartnomaning XII bobida ko'rsatib o'tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda Garovga qo'yuvchining yuridik manzili, telefon raqami (vakilning uyali aloqa raqami).

2.4. Garovga oluvchi bilan aloqa bog'lash usuli: mazkur shartnomaning XII bobida ko'rsatib o'tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda 0 800 1 200 200 hamda 1256 (pullik) raqamlar.

### **3. Garovga qo'yuvchining huquq va majburiyatları**

#### **3.1. Garovga qo'yuvchi quyidagi huquqlarga ega:**

- 3.1.1 shartnama va qo'shimcha shartnomalarini imzo qo'ymasdan oldin tanishib chiqishi uchun o'zi bilan olib ketish;
- 3.1.2 qonun hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini, shu jumladan muzokaralar o'tkazish orqali, qo'llash;
- 3.1.3 garovga qo'yuvchi depozit/omonat bilan ta'minlangan majburiyat yakunlangunga qadar agarda depozit/omonat shartnomasida nazarda tutilgan taqdirda, shartnomada nazarda tutilgan shartlarda depozit/omonatga nisbatan hisoblangan foizlarni olishga haqli;
- 3.1.4 garovga oluvchi bilan tuzilgan garov shartnomasi bo'yicha barcha majburiyatlar bajarilganda yoki qonun bilan ko'zda tutilgan boshqa asoslarda shartnama bekor qilinganida garovga qo'yuvchi garov obyektini cheklovlardan ozod qilishni talab etishga haqli;
- 3.1.5 qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lish.

#### **3.2. Garovga qo'yuvchining majburiyatları quyidagilar:**

- 3.2.1 garovga qo'yuvchi garovga qo'ygan depozit/omonat mablag'ini ushbu garov shartnomasi kuchda bo'lgan muddat davomida muddatidan oldin qaytarib olmaslik, boshqa shaxsga o'tkazmaslik, tasarruf etmaslik bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga oladi;
- 3.2.2 depozit/omonat mablag'ini garovga qo'yish, mazkur shartnomani imzolash munosabati bilan zarur bo'lgan garovga qo'yuvchi va qarzdorning imzosi, er yoki xotinining omonatdag'i pul mablag'larini garovga qo'yishga notarial tasdiqlangan roziligi va boshqa vakolatlari bo'yicha tegishli hujjatlarni taqdim qiladi;
- 3.2.3 ushbu depozit/omonat mablag'iga garovga oluvchining farmoyishiga asosan taqiq qo'yiladi. Mazkur taqiq garovga oluvchi tomonidan bekor qilinmagunicha garovga qo'yuvchini mazkur depozit/omonat mablag'ini tasarruf etishi vaqtincha cheklanadi. Agar bu vaqt orasida muddatli depozit/omonat shartnomasi muddati tugasa, depozit/omonat shartnomasida nazarda tutilgan depozit/omonatlar depozit/omonat shartnomasi shartlari asosida uzaytiriladi;
- 3.2.4 garovga qo'yuvchiga qarshi sudda tegishli da'vo qo'yilganda, sud ishiga garovga oluvchi ishtirokini ham ta'minlash;
- 3.2.5 depozit/omonat mablag'i noqonuniy ravishda o'zganining egaligiga o'tganda, garovga oluvchini bu haqda xabardor etish;

- 3.2.6 garov obyektini navbatdagi garovga bermaslik. Navbatdagi garovga oluvchi va garovga qo'yuvchi bir shaxs bo'lgan xollar bundan mustasno;
- 3.2.7 garovga qo'yuvchi va qarz oluvchi boshqa shaxslar bo'lgan taqdirda, agar garovga oluvchi tomonidan taqdim etilgan kredit bo'yicha to'lovlardan depozit/omonat mablag'i hisobidan undirilganida, garovga qo'yuvchi depozit/omonat mablag'i hisobidan to'langan mablag'larni qarz oluvchidan talab qilishga haqli;
- 3.2.8 qarz oluvchi va garovga qo'yuvchi bir shaxs bo'lgan taqdirda, kredit (qarz) bo'yicha garovda turgan o'zining depozit/omonatidagi mablag'larini kredit shartnomasi davrining hohlagan vaqtida depozit/omonatning amal qilish muddatidan qat'iy nazar, mazkur kreditni qaytarish uchun yo'naltirish huquqiga ega. Bunda, qarz oluvchi kredit bo'yicha garovda turgan o'zining muddatli depozit/omonatidagi mablag'larini shartnomada ko'rsatilgan depozit/omonat muddati tugaguniga qadar kreditni qaytarish uchun yo'naltirmoqchi bo'lsa, u bu haqda bankni depozit/omonatni qaytarishni mo'ljallayotgan sanadan kamida bir oy oldin habardor qilishi lozim;
- 3.2.9 ta'sis hujjatlariga o'zgarishlar kiritilganda (yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun – ro'yxatdan o'tish guvohnomasi va soliq hisobiga qo'yish guvohnomasi) yoki yuridik shaxslar/yakka tartibdagi tadbirkorlar yagona davlat reyestridagi ma'lumotlar o'zgarganda – garovga qo'yuvchiga tegishli hujjatlarning tasdiqlangan nusxasini va o'zgarishlar davlat ro'yxatidan o'tganidan 5 kalendar kuni davomida yagona reyestrda ko'chirmani taqdim etadi. Unda ko'rsatilgan o'zgarishlar davlat ro'yxatidan o'tgani qayd etiladi;
- 3.2.10 qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlar.

## 4. Garovga oluvchining huquq va majburiyatları

### 4.1 Garovga oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

- 4.1.1 garovga oluvchi garov bilan ta'minlangan majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan undiruvni to'laligicha garov obyektiga qaratish ;
- 4.1.2 garovga oluvchining talablari garovga qo'yilgan depozit/omonat mablag'i hisobidan qondirish;
- 4.1.3 agarda depozit/omonat garov shartnomasi bilan ta'minlangan majburiyat qarz oluvchi tomonidan bajarilmagan taqdirda, garovga oluvchi garovga qo'yuvchining \_\_\_\_\_ depozit/ omonat hisob varag'iga talabnomasi qo'yish orqali pul-mablag'larini akseptsiz tarzda undirib olish huquqiga ega bo'ladi;
- 4.1.4 qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lish.

### 4.2 Garovga oluvchining majburiyatları quyidagilar:

- 4.2.1 depozit/omonat mablag'iga qo'yilgan taqiq ijrosini ta'minlash bo'yicha javobgarlik to'laligicha depozit/omonat saqlovchi zimmasida bo'ladi;
- 4.2.2 garov bilan ta'minlangan majburiyatlar to'liq bajarilgach, garovga oluvchi majburiyatlar to'liq bajarilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda:
- 4.2.3 garovda turgan mulkni taqiqdan chiqarish;
- 4.2.4 garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan bankning huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reyestridan chiqarish choralarini ko'rish.
- 4.2.5 Qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlar.

## 5. Shartnoma bo'yicha huquqlardan voz kechish

5.1 Garovga oluvchi shartnoma bo'yicha talab qilish huquqidan to'laligicha yoki qisman uchinchi shaxslar foydasiga voz kechishi mumkin.

5.2 Garovga qo'yuvchi garovga oluvchi bilan kelishmagan holda o'z huquqlaridan voz kechish va shartnoma bo'yicha majburiyatlarini qanday shaklda bo'lmasin uchinchi shaxslarga topshirishga, o'tkazishga haqli emas.

## 6. Garov obyektiga nisbatan undirishga qaratish tartibi

6.1 Qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasidagi majburiyatlar bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda garovga oluvchi mavjud qarzdorlikni garov obyekti hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olishga haqli.

6.2 Garovga oluvchi garovga qo'yuvchiga garov obyektiga nisbatan undirishga qaratish to'g'risida xabarnomani jo'natadi.

6.3 Garovga oluvchining xabarnomasini olishi bilan garovga qo'yuvchi kredit to'lovlari depozit/omonat mablag'i hisobidan amalga oshiradi.

6.4 Mazkur bo'limning shartlari garov obyektiga nisbatan suddan tashqari tartibda undirishga qaratish to'g'risidagi kelishuv bo'lib hisoblanadi va garov shartnomasidagi majburiyatlarni lozim darajada bajargunga qadar o'z kuchini saqlab turadi.

## 7. Korrupsiyaga qarshi kurashish

7.1 Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqланади.

7.2 Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

7.3 Agar shartnoma ishtirokchilarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korruption harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'lувчи dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

7.4 Xabarni olgan tomon haqiqatda korruption harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmagliji to'g'risida tasdiqqa ega bo'lgunicha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

7.5 Pora berish evaziga ikkinchi tomon vakilini, affillangan shaxsini, xodimini yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilarini shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

## 8. Javobgarlik va boshqa shartlar

8.1 Garov bilan ta'minlangan majburiyatlar to'liq bajarilgandan so'ng garovga qo'yuvchining talabi bilan bir ish kuni ichida garov shartnomasi bo'yicha garovga qo'yuvchi tomonidan majburiyatlari to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat garovga oluvchi tomonidan taqdim etiladi.

8.2 Shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini buzgan taraf qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda boshqa tarafga yetkazilgan zararlarni qoplashni o'z zimmasiga oladi.

8.3 Garovga oluvchi qarz oluvchi va garovga qo'yuvchi o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday oqibatlarga javobgar emas.

8.4 Taraflar tomonidan bir-biriga jo'natiladigan har qanday xabarnoma yoki boshqa xatlar yozma shaklda amalga oshirilishi shart. Bunday xabarnoma yoki xat pochtachi, xabarnomani olganini tasdiqlovchi buyurtma xat, faks, elektron manzil orqali pochta va elektron manzilga yoki shartnomada ko'rsatilgan faks raqamiga yo'llangan xabarnomalar lozim darajada jo'natilgan, deb hisoblanadi. Pochta xabari/xati pochtadan ko'rsatilgan manzilda oluvchi shaxs yo'qligi tufayli belgisi bilan qaytarilgan hollarda ham jo'natilgan, deb hisoblanadi.

8.5 Shartnomalar tuzilishi va bajarilishi munosabati bilan garovga oluvchiga taqdim etilgan ma'lumotlarni (shaxsiy ma'lumotlar ham shular jumlasidan) qonunchilikka, bankda o'rnatilgan qoidalar, garovga oluvchining ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq qayta ishslash va saqlashga garovga qo'yuvchi rozilik beradi.

8.6 Shartnomadan kelib chiqadigan va muzokaralar yordamida hal qilinmagan barcha kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida ko'rib chiqilib hal etiladi.

8.7 Mijozga bank xizmatini taklif kilish maqsadida ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek shartnomalar muddati tugagandan so'ng 1 yil mobaynida mijozning har qanday manbalardagi ma'lumotini olib qayta ishlagan holda taxlil o'tkazishga mijoz o'z rozilagini beradi.

## 9. Maxfiylik

9.1 Shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

9.2 Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog'ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma'lumotlarni axborot egasining yozma roziligesiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi. Mazkur talab shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnomalar muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil davomida amal qiladi. Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to'liq hajmda qoplaydi.

9.3 Garovga oluvchi o'z huquqlari va manfaatlari yoki ularni himoya qilishi maqsadida kreditorga kafil to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etish (topshirish) uchun so'zsiz rozilagini bildirgan hisoblanadi.

9.4 Garovga qo'yuvchi garovga oluvchiga shartnomada ko'rsatilgan yoki shartnomalar tuzilishi va bajarilishida kreditorga taqdim etilgan garovga qo'yuvchining barcha ma'lumotlari bilan ishslash va topshirishga mazkur shartnomaga asosan rozilagini tasdiqlaydi. Shu jumladan, shartnomalar bo'yicha huquqiy vorislik tartibida kreditorning huquq va majburiyatlari boshqa shaxsga

o‘tganda, ularni uchinchi shaxsga topshirishga ham rozilik beradi. Kreditor bunday ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etishi kafilning qonun bilan muhofaza qilinadigan bank va boshqa sirlarining buzilishi bo‘lib hisoblanmasligiga mazkur shartnomaga binoan roziligini bildirgan hisoblanadi.

## **10. Fors – major holatlari**

10.1 Yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu taraflarning irodasi, xohishiga bog‘liq bo‘lмаган tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chki, bo‘ron va hokazo), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko‘zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va Bankning elektron to‘lov hamda ta’midot tizimidagi nosozlik, Bankning dasturiy ta’midot tizimiga qilingan tahdid (hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

10.2 Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtida taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdan ozod bo‘ladi. Fors-major holati 90 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda shartnoma bekor qilinishi mumkin.

10.3 Fors-major holatlari boshlanganligi yoki yakunlanganligi haqida bir taraf ikkinchi tarafni 3 ish kuni ichida bu haqda yozma ravishda xabardor qilishi shart. Xabarnomalar barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

## **11. Shartnomaning kuchga kirishi va bekor qilish tartibi**

11.1 Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi garovga oluvchida, ikkinchi nusxasi garovga qo‘yuvchida saqlanadi. Garovga qo‘yuvchi yoki uning vakolatlari vakiliga garov shartnomasi imzolangan kunda shartnomaning bitta asl nusxasini taqdim etiladi.

11.2 Shartnoma taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va garov ta’milangan majburiyatlar to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

11.3 Garov bilan ta’milangan majburiyatlar tugashi bilan shartnoma tugatiladi, shuningdek, garov obyektini realizatsiya qilish va garov shartnomasi bo‘yicha qarzdorlik to‘langanidan so‘ng ham tugatiladi.

## **12. Taraflarning rekvizitlari va imzolari**

<b>Kreditor:</b>	<b>Qarz oluvchi:</b>
<b>CHEKI "Hamkorbank" ATB _____</b>	<b>Qarz oluvchi nomi:</b>
<b>bank xizmatlari ofisi</b>	<b>Manzil:</b>
<b>Manzil:</b>	<b>MFO:</b>
<b>MFO: 00083</b>	<b>STIR:</b>
<b>STIR: 200242936</b>	<b>Hisob raqam:</b>
<b>Hisob raqam: 16103000500000083001</b>	<b>Rahbari:</b>
<b>Aloqa markazi: 0 (800) 1-200-200, 1256</b>	<b>Bosh hisobchi:</b>
<b>E-mail: contact@hamkorbank.uz</b>	
<b>Boshqaruvchi: _____</b>	
<b>M.O’.</b>	